

SARDOBA SUV QURILISHI VA FAOLIYATI NATIJASIDA TABIIY LANDSHAFTLARNING O'ZGARISHI

Bahromova Muhayyo Imomqul qizi

*A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika
universiteti 231-21-guruh talabasi*

<http://Muhayyobahromova01.com>

Qo'shmatov Botirbek Berikboy o'g'li

*A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika
universiteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sardoba suv omborining bunyod etilishi natijasida tabiiy landshaftlarning qiyofasi, tuzilishi, ulardagi kechayotgan jarayonlar, ekologik holatning o'zgarishi oqibatida bevosita va bilvosita yangi tipdagi landshaftlarning shakllanishi va paydo bo'lishi kabi masalalar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: qulay, noqulay, ekspertiza, energiya manbai, qishloq xo'jaligi, transport, to'g'on, kanal, damba, intensiv foydalanish.

Аннотация: В данной статье рассматривается внешний вид и структура природных ландшафтов в результате строительства Сардобинского водохранилища, происходящие в них процессы, формирование и появление новых типов ландшафтов прямо и косвенно в связи с изменением экологического состояние обсуждаются.

Ключевые слова: благоприятный, неблагоприятный, экспертиза, источник энергии, сельское хозяйство, транспорт, плотина, канал, плотина, интенсивное использование.

Abstract: In this article, the appearance and structure of natural landscapes as a result of the construction of the Sardoba reservoir, the processes taking place in them, the formation and emergence of new types of landscapes directly and indirectly due to the change in the ecological state are discussed.

Key words: favorable, unfavorable, expertise, energy source, agriculture, transport, dam, channel, dam, intensive use.

KIRISH

Jahon aholisining jadal ravishda ortib borishi tabiiy resurslar, shu jumladan, suv resurslaridan intensiv foydalanishni va uning oqibatida suv havzalarining landshaft komponentlarida har xil o'zgarishlar, yerlarning botqoqlanishi, sho'rlanishi, yer osti suvlari sathining tobora o'zgarishi jarayonlarini yuzaga keltirmoqda. Yer yuzida jamiyat rivojlanishining asosini suv xo'jaligi tashkil etadi. Tarixiy rivojlangan Misr,

Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyo va boshqa hududlarda insoniyat jamiyatining rivojlanishida suv resursi asosiy omil hisoblangan. Dunyodagi yirik shaharlar, masalan, Pekin, Shanxay, Dehli, Moskva, Parij, London, Amerika qit'asi shaharlari va boshqa ko'p shaharlar yirik daryolar atrofida barpo etilgan. Suv insonni to'ydiradi, kiyintiradi va zaruriyatlarini amalgam oshirishda xizmat qiladi. Shundan suvni insonning birinchi zarur manbai deb qarash asosli bo'ladi. 70 yil umr ko'rgan inson taxminan 45-50 tonna suv va suvli mahsulot iste'mol qiladi. 1 kg bug'doy yetishtirish uchun 1-3m³ yoki tonna, 1 kg paxta xom-ashyosi yetishtirishda bug'doyga nisbatan o'rtacha ikki marta ko'p suv sarflanadi. Tirik mavjudod tanasining asosiy qismini ham suv tashkil etadi.

ASOSIY QISM

Insoniyatning butun hayot faoliyati va ehtiyojlari tabiat bilan o'zaro bog'liqlikda bo'lib, usiz na biron ehtiyojini qondira oladi va na mavjud bo'la oladi.

Xususan, tabiat uchun "noqulay" degan tushunchani o'zi begona. Qanday sharoit, qanday holat bo'lishidan qat'iy nazar shu makon, shu hudud uchun shu sharoitni o'zi qulay va yetarlidir. Tabiatga nisbatan "qulay" yoki "noqulay" deb qo'llaniluvchi tushunchalarning barchasi bu insoniyat manfaatlari nuqtai nazaridandir. Insoniyatning yirik ixtirolaridan bo'lmish suv omborlari ham bir tomondan uning manfaatlariga xizmat qilgan ekan, ikkinchi tomondan atrof-muhitning tubdan o'zgarishiga olib keladi. Bu bilan odamzot tabiatning "tabiiy"ligiga o'zining katta ta'sir ko'rsatilib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib dunyoning turli mintaqalarida barpo etilgan suv omborlari shu qadar ko'payib ketganki, ular bevosita tabiatga o'zining kuchli ta'sirini o'tkazmoqda. Ayniqsa, fan-texnika inqilobiga qadar barpo etilgan ko'plab suv omborlar o'sha hudud uchun katta talofatlar keltirib chiqargan yoki o'z faoliyatini juda tezlik bilan yakunlagan. Bugungi kunga kelib esa ular chuqur ekspertizadan o'tkazilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa tabiatga bo'ladigan ta'sirini kamaytirish va insoniyatning yashash muhitini iloji boricha o'z holida saqlashdir.

Qator regional va global muammolarning kelib chiqishi insoniyatning har qanday qilmishini oldindan chuqur o'ylashga majbur etib qo'ydi. Bugungi kunda jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda tabiat qonuniyatlari e'tiborga olinayotgan bo'lsada, tabiatga nisbatan jamiyatning salbiy ta'sirlari butunlay to'xtaganicha yo'q.

Jamiyatning tabiatga bo'ladigan ta'sirlari ko'p hollarda geotizimning bir yoki bir necha komponentiga yo'nalgan bo'lsa, gidrotexnik inshoot hisoblanmish suv omborlari butun bir geotizim o'zgarishiga olib kelishi bilan boshqa bir ta'sirlarga qaraganda alohida ajralib turadi. Suv omborlar joylashgan o'rni, katta-kichikligi va boshqa bir turlariga qarab atrof-muhitga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu o'rinda asosan qurg'oqchil hududlarda joylashgan tekislik suv omborlarining ta'siri qolganlariga qaraganda ancha sezilarli. Aynan shunday suv omborlardan biri Respublikamizda sakkiz yillik muddat ichida qurilib, o'z faoliyatini boshlagan Sardoba suv omboridir.

Suv omborning umumiy suv sig'imi 922 mln m³ ga teng bo'lib, Mirzacho'lining markaziy qismida joylashgan. Birgina suv ombori qurilishi bu yerda kelgusida kichik bir gidroelektrostansiya qurish imkonini ham beradi.

Sardoba suv omborining qurilishi va undan foydalanish 2017-yildan ommaviy tus olib, lokal darajaga ko'tarildi. Bir tomondan, suv omborlari iqtisodiy rivojlanishning omillaridan biri bo'lsa (suvga bo'lgan aholining ehtiyoji, energiya manbai, qishloq xo'jaligi, transport), ikkinchi tomondan, landshaft-ekologik omillaridan biriga aylanib, tabiatga salbiy ta'siri bilan namoyon bo'ldi (botqoqlanish, sho'rlanish, katta hududlarning suv tagida qolishi, kasalliklar, flora va faunaning o'zgarishi).¹ Bu suv omborlarining geografiyasi, suv sig'imi, maydoni, shakli bilan bog'liqdir.

Sardoba suv qurilishi va faoliyati natijasida tabiiy landshaftlar o'zgardi, ularning yangi tiplari, inson tomonidan boshqariladigan, gidrotexnika inshootlari (to'g'on, kanal, damba va boshqalar), suv bosishi bilan bog'liq bo'lgan gidrogen landshaftlar, sho'rlangan, botqoqlashgan maydonlar, tabiiy landshaftlarning tabiiy-antropogen tiplari bilan almashishi kuzatildi.

Suv omborlarining qurilishi natijasida tabiiy landshaftlarning qiyofasi, tuzilishi, ulardagi kechayotgan jarayonlar va ekologik holati o'zgardi. Bu esa, asosan, inson aralashuvi natijasida sodir bo'lishi, bevosita yoki bilvosita yangi tipdagi landshaftlarning shakllanishi va paydo bo'lishiga olib keladi.

Suv ombori ta'sirida kechayotgan jarayonlar turli kuchga va tezlikka ega bo'lgani uchun landshaft qiyofasining o'zgarishi ham har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi.[8; 10 b].

Shu o'rinda tadqiqotchi I.Abulqosimovaning Sardoba suv omborining ta'sir darajasiga qarab uning suvi bilan sug'orilayotgan Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida quyidagi zonalarini ajratishimiz mumkin:

- ✓ Sardoba suv omborining bevosita ta'sir zonasi. Ushbu hududda yuqorida aytganimizdek, 142 ming gektar maydon sug'orilib, suv bilan ta'minlanganlik darajasi 59,3% dan 94,1% ga ortdi;
- ✓ Bilvosita ta'sirdagi janubiy zona, ushbu hudud bevosita suv ombori suvi bilan sug'orilmasada yaxshilanishi ko'zda tutilgan 159 ming gektar hudud kiradi. Ushbu zonada ham suv bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi 78,9% dan 90,6% ga qadar ko'tarildi;
- ✓ Bilvosita ta'sirdagi hududlar, ya'ni Jizzax zonasi bo'lib, hududdagi 95 ming gektar maydonga uning ta'siri seziladi. Suv bilan ta'minlanganligi 71,3% dan 91% gacha yaxshilanadi.[1; 47 b].

¹Каримов И. Э. Жиззах сув омбори таъсири доирасидаги геотизимларнинг ландшафт – экологик ҳолатини баҳолаш // География фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. –Т.; 2021. -10 б.

Insonning xo‘jalik faoliyati natijasida tabiiy landshaftlar strukturasi katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda, ularning o‘rnida yangi turli ko‘rinishdagi antropogen landshaftlar shakllangan. Antropogen landshaftlar, tabiiy landshaftlar kabi doimiy turg‘un yo‘nalishda rivojlanmoqda. Voha landshaftlarini ajratish va kartalash-tirishda, asosiy e‘tibor relyefning genetik tipiga, ona jinslarining shakllanishiga, tuproqlar tuzilishiga, agrobiosenozlar xarakteriga, yer osti suvlarining chuqurligiga qaratiladi.

Gidrogen landshaft shakllanishi deb, yangi barpo etilgan suv inshooti qirg‘oqlarining turli ekzogen va endogen kuchlar ta‘sirida suv osti va suv ustki umumiy qiëfasini qayta shakllanish jarayoni tushuniladi (G.V. Voropayev, A.B. Avakyan, 1986). Hidrogen landshaftlarining shakllanishi va ularni gidrogen landshaft, maydon, joy, fatsiya kabi darajalari I.X. Abdullayev (2006) tomonidan ajratib chiqilgan bo‘lsa, Sardoba suv omborining atrof-muhitga ta‘sirini prognoz-lashni tadqiqotchi I. Abulqosimovaning magistrlik dissertatsiyasidan o‘rganish mumkin.

XULOSA

Yuqoridagi ma‘lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, Sardoba suv omborining atrof-muhit landshaftlariga ta‘sirini baholash asosiy omillardan biri bo‘lib, hozirgi kunda antropogen omillar hisoblanadi. Antropogen omillarning asosini esa suv omborining gidrotexnogen tizim sifatidagi faoliyati, uning sathining o‘zgarishi, suv ombori atrofidagi seliteb, agrolandshaftlar, rekreasion hududlarning shakllanishi, baliqchilik va boshqalar tashkil etadi. Bundan tashqari yuqorida ta‘kidlanganidek, asosiy o‘zgarishlar insonning ongli faoliyati, ya‘ni uning suv omborini boshqarishi bilan bog‘liq bo‘lib, uning o‘rganilishi muhim geografik masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abulqosimova I.P. Sardoba suv omborining atrof-muhitga ta‘sirini prognozlash // Magistrlik dissertatsiyasi. –T.; 2020. -47 b.
2. Abdullayev I.X., Karimov I.E. Jizzax suv ombori ta‘siri doirasida tabiiy-antropogen landshaftlarni rayonlashtirish masalalari // Geografiya: tabiat va jamiyat. 2-son, 1-jild.-Toshkent, 2020. -B.1-4.
3. Azimov Sh.A. Gidrotexnik inshootlar va atrof muhit munosabatlari. // -O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti 18 tom 2-qism T., 1997. 98-100 b.
4. Avakya A.B., Rivg'er L.K. Urovenngy rejim kak faktor stanovleniya funktsionirovaniya ekosistem vodoxranilio' 1 1 Vodnge resursg. - Moskva, Nauka, t.23, No4. iyul-avgust 2000. -S.389-398.
5. Qo‘shmatov B.B. Sardoba suv ombori va uning atrof-muhit landshaftlariga ta‘sirini baholash // Technische Universitet Munchen Modern scientific research:-achievements, innovations and development prospects. –Jizzax.; 2022. -40-43 b.
6. Qo‘shmatov B.B. Sardoba suv omborining bunyod qilinishi natijasida miqroiqlim va tabiiy komponentlarning o‘zgarishi // Journal of new century innovations <http://www.newjournal.org/>. – Jizzax.; 2022. -109-112 b.
7. Kholdorova G M. Changes In Natural Geographical Processes In The Mirzachul Region Under The Influence of The Sardoba Reservoir // European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – Jizzax.; 2020. -3136-3147 b.
8. Каримов И. Э. Жиззах сув омбори таъсири доирасидаги геотизим-ларнинг ландшафт – экологик ҳолатини баҳолаш // География фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. –Т.; 2021. -5-43 b.